

## VIGNA FASOL (YASHIL LOVIYA) EKISH VA YETISHTIRISH, TEXNALOGIYASI ,VIGNA FASOLINING ORGANIZM FIZIOLOGIYASIDA FOYDALI XUSUSIYATLARI.

**Z.R.Abdusalomova**

*O'z-Fin Pedagogika instituti assistenti*

**Xudaykulova Marjona**

*O'z-fin Pedagogika instituti talabasi*

**Erkinova Feruza**

*O'z -fin Pedagogika instituti talabasi*

**Anatotsiya:** *Maqolada Vigna fasol yetishtirish bo'yicha umumiy ma'lumotlar berilgan, shuningdek Vigna fasolni organizm fiziologiyasi ichki organlar, endokrin sistemasi uchun foydali xususiyatlari keltirilgan.*

**АНОТОЦИЯ.** *В статье приведены общие сведения о посадке и выращивании сорта фасоли Вигна для физиологии организма, внутренних органов и эндокринной системы.*

**Kalit so'zlar;** *Kaliy permanganat superfosfatlar vegetatsiya davri Bronxial kasalliklar Qandli diabet .*

**Ключевые слова;** *перманганат калия, суперфосфат, вегетационный период, бронхиальные заболевания, сахарный диабет.*

Mamlakatimizga Afrikadan olib kelingan dukkakli o'simliklar yozgi aholi bog'larida va agronomlar fermalarida ko'proq o'stiriladi. Afrikadan olib kelingan o'simlik tropik iqlimga o'rganib qolgan, xususan o'simlik qisqa vaqt ichida juda yuqori havo haroratiga bardosh bera oladi, ammo u uchun optimal qiymatlar 20-25 gradus atrofida. Ammo qo'shimcha boshpanasiz past haroratda omon qololmaydi. Shuning uchun mamlakatimizning sovuq hududlarida uni issiqxonada yetishtirish yaxshi. Yashil loviya (vigna) ekish uchun joy kuzda tayyorlana boshlanadi, yer yaxshi yoritilgan va quruq, kuchli shamollarsiz bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'simlik vegetatsiya davrida ko'p miqdorda ozuqa moddalarni istemol qiladi, shuning uchun ekishdan oldin tuproq yaxshi boytilishi kerak. Bu turdagi loviya juda qisqa vegetatsiya davriga ega o'simlik. Paydo bo'lgandan taxminan 40-50 kun o'tgach hisoblanadi. Belgilangan vaqtdan keyin hosilni yig'ib olishingiz mumkin. Ekish texnologiyasi quyidagicha; urug'larni bir necha soat kaliy permanganatdan namlang, so'ngra ularni yopiq idishga soling. Taxminan bir oy ichida urug'lar o'sadi va kuchliroq bo'ladi. Ekishdan bir hafta oldin tuproqqa superfosfat va atala kabi organik o'g'itlar qo'shing. Ko'chatlarni issiq tuproqqa ko'chiring va tuproqni sug'orib oling. Shuni unutmaslik kerakki havo harorati +18 gradusdan past bo'lsa o'simlik uchun noqulay selsiy hisoblanadi. Bunday uni maxsus issiqxonalarda yetishtirish samarali hisoblanadi. Hozirda yaratilgan Vigna fasol navlari juda chidamli. Alohida parvarish, yerga moyil emas, oddiy qishloq dehqonchilik muhitida ham tonnalab hosil beradi, turli qimmat o'g'itlarsiz ham yaxshi o'sadi. Har bir nav ozuqaviy qiymati tashqi ko'rinishi, pishish vaqti bilan farq qiladi. Qushqo'nmas ya'ni Vigna navini organizm uchun foydali jihatlari. Vigna navi tarkibida

oltingugurt, fosfor , kalsiy , kaliy, xrom,magniy,va temir kabi organizm uchun zarur bo'lgan minerallar mavjud.Shuningdek A,B guruhi vitaminlari karotin, foliy va niatsin muhim ahamiyatga ega.Bu vitaminlarning mavjudligi nafas olish kasalliklari paytida organizmga turli viruslar bilan kurashishga yordam beradi. Haftada kamida 2 marta yashil loviya istemol qilish kifoya .Oshqozon -ichak trakti , Yurak -qon tomir tizimi buyrak kasalliklari bilan og'rigan odamlarga foydalanish tavsiya etiladi.Shuningdek o'simlikning qaynatmasi qandli diabet va revmatizm bilan kassalangan organizmga foydali ta'sir etishi isbotlangan.O'simlik quyidagi foydali elementlatrni o'z ichiga oladi: oqsillar kraxmal, C, B, A vitamini, mineral tuzlar va temir kabilar.



Bronxial kasalliklar, ichak kasalliklari yoki revmatizm kabi kasalliklarga chalingan odamlar uchun foydali.Bundan tashqari loviya oltingugurt tola, kul va limon kislotasiga juda boy

Qandli diabetda qondagi qand miqdorini doimiy ushlab turish uchun ham bu mahsulotdan foydalanish o'rinli.Bundan tashqari Vigna tarkibida ko'plab protein va aminokislotalar bo'lganligi sababli organizm metabolizmida ya'ni moddalar almashinuvi jarayoni normal ketishida ham ishtirok etadi.Endokrin Sistema kasalliklari biri hisoblangan insulin ishlab chiqargan normal holatdan o'zgarsa, organizmdagi oqsil va aminokislotalar tarkibini tekshirish insulin miqdoriga qarab qancha oqsil iste'mol qilish kerakligi katta ahamiyatga ega. Vigna fasol(yashil loviya ) buyraklar va siydik pufagidagi yalig'lanish

jaroyonlari uchun foydalidir Gullarining qaynatmasi ularda hosil bo'lgan toshlarni olib tashashga yordam beradi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1. Atabayeva H , Qodirhojayev O . O'simlikshunoslik . Oliy va o'rta mahsus talim vazirligi tomonidan bakalaviriyat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan .

2. Mirsharipov G.H O'simlikshunoslik (uslubiy qo'llanma). Guliston 2018.42

O'quv uslubiy qo'llanma

3. Xurramov O.G', Islamov B.S SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA  
GLYRRHIZA GLABRAL NING BA'ZI BIR XUSUSIYATLARI

//Журнал естественных наук – 2021.Т

### **INTERNET MANBAALARI:**

4. Avitsenna. uz

5. [https; // davolash. ru /](https://davolash.ru/)

6. [https; //www. hufocw . org/](https://www.hufocw.org/).

7. [https, // diyor 24. uz /date/2020/01](https://diyor24.uz/date/2020/01).